

**Buxoro muhandislik-texnologiya instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrası dotsenti, Siyosiy fanlar nomzodi,
Bafoyev Feruz Murtazoyevich taqrizi ostida**

Latofat Saydullayevna Sultonova
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti
“Ijtimoiy fanlar” kafedrası katta o‘qituvchisi
Email: sultonovalatofat@gmail.com
ORSID ID: 0009-0008-1529-0086

YANGILAYOTGAN O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTINI YUKSALTIRISHDA MA’RIFATPARVARLIK FAOLIYATINING TUTGAN O‘RNI

Annotatsiya: Maqolada Yangi O‘zbekiston iqtisodiyotini yuksaltirib, uni barqarorligini ta’minlash ayniqsa, bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonini jadallashtirishning asosiy yo‘llaridan biri kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hisoblanadi. Jamiyatning yangi rivojlanish bosqichi mamlakatimizda tadbirkorlik muhitini har tomonlama rivojlantirish, fuqarolar iqtisodiy tafakkurini shakllantirib borish masalalariga katta e’tibor qaratib kelinmoqdaligi hamda yurtimizda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosatining mazmun-mohiyati, yurt ravnaqi, Vatan taraqqiyotida yoshlarning tutgan o‘rni, har bir yosh avlod uchun yuklangan mas’uliyat tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, ma’rifatparvarlik, yoshlar, ma’naviyat, boyoshlarga oid davlat siyosati, globallasuv, davlat dasturi.

Аннотация: В статье одним из основных путей повышения экономики Нового Узбекистана и обеспечения его стабильности, особенно ускорения процесса перехода к рыночной экономике, является развитие малого бизнеса и частного предпринимательства. На новом этапе развития общества в нашей стране большое внимание уделяется вопросам всестороннего развития предпринимательской среды, формирования экономического мышления граждан, сущности реализуемой в нашей стране государственной политики в отношении молодежи, развития страны, роль молодежи в развитии Родины, является задачей каждого молодого поколения, ответственность.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, просвещение, молодежь, духовность, государственная политика для бедных, глобализация, государственная программа.

Annotation: In the article, one of the main ways to improve the economy of New Uzbekistan and ensure its stability, especially to accelerate the process of transition to a market economy, is the development of small business and private entrepreneurship. The new stage of the society's development in our country is paying great attention to the issues of comprehensive development of the entrepreneurship environment, shaping the economic thinking of citizens, and the content and essence of the state policy regarding the youth implemented in our country, the development of the country, the role of young people in the development of the Motherland, is assigned to each young generation. responsibility was analyzed.

Key words: New Uzbekistan, enlightenment, youth, spirituality, state policy for the poor, globalization, state program.

KIRISH: O‘zbekiston Respublikasining milliy mustaqilligi davrida jamiyatning butunlay yangi siyosiy tizimi shakllandi. Mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning samarali natijalari sifatida davlat va jamiyat qurilishining barcha jabhalarida demokratik o‘zgarishlar ro‘y berdi. Demokratik xuquqiy davlat rivojining mantig‘i, ichki qonuniyatlari davlat hokimiyati organlari va boshqaruvining siyosiy partiyalar va jamoat birdashmalari-kasaba uyushmalari, faxriylar, yoshlar, xotin-qizlar tashkilotlari, ijtimoiy va ijodiy jamg‘armalar, fuqarolarning boshqa turli birlashmalari bilan har tomonlama yaqin aloqalari va hamkorligini taqozo etadi. Mahalla fuqarolar yig‘inlari, O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi tuman va shahar kengashlari, xotin-qizlar

qo‘mitalari kafilligi asosida sudlanuvchilarga, ayniqsa yoshlarga ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazo turlari tayinlanmoqda. Ularning to‘g‘ri yo‘lga qaytishlari uchun yana bir imkoniyat berilmoqda.

MATERIALLAR VA USLUBLAR: Globallashuv sharoiti mamlakat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma‘naviy-ma‘rifiy sohalariga ijobiy ta‘siri bilan bir qatorda salbiy oqibatlarini ham namoyon qilmoqda. Bunday vaziyatda yoshlarga hozirgi zamon talablari darajasi bilim va tarbiya berishda milliy manfaatlarni singdirish, ongi har qanday salbiy ta‘sirlarga nisbatan bardoshli qilib voyaga yetkazish-bugungi kun ta‘lim muassasalarining asosiy vazifasidir, chunki faqat ana shunday insonlarga kelajakda bariaror jamiyat poydevorini yarata oladilar.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning markazida yoshlar masalasi alohida belgilab olingan. Mamlakat kelajagi bo‘lmish yoshlarga qancha keng imkoniyatlar yaratilsa, yurtning ertangi kelajagiga ishonch shuncha kuchli bo‘ladi. Jamiyatning yangi rivojlanish bosqichida yoshlarga qaratilgan davlat siyosati dinamikasi, o‘z borganini kuzatish mumkin. Bunga javoban yoshlarimizning xalqaro maydonlarda sport, san‘at, ilm-fan, axborot texnologiyalari, tadbirkorlik sohalarida ulkan yutuqlarni qo‘lga kiritib, yurtimiz sha‘nini, dovrug‘ini, mavqeyini oshishida o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shmoqda. Albatta, bunday yutuqlar mamlakatda olib borilayotgan yoshlarga oid davlat siyosati bilan chambarchas bog‘liqdir.

Jamiyatdagi yoshlarda vatan manfaatlarini qadrlash, milliy manfaatlar ustuvorligi asosidagi vatanparvarlikni shakllantirish, bu boradagi tashkiliy-huquqiy ipshlarning samaradorligi tahlil qilingan. Buning uchun, avvalo milliy manfaatlar tushunchasining mazmun mohiyatini ko‘rib chiqish, yoshlarda vatanparvarlikni shakllantirishdagi o‘rni yoritish maqsadga muvofiq ish bo‘ladi.

Milliy manfaatlar deganda millatga, milliy davlatchilikka moddiy, ma‘naviy, ruhiy va jismoniy foyda, naf keltiruvchi omillar nazarda tutiladi. Demak, yoshlarda o‘z mamlakatiga foyda keltiradigan turli faoliyat bilan band bo‘lishi, qarashlarga ega bo‘lishi ham uning sadoqatini namoyon qiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR: Mamlakatimizdagi islohotlarni yanada samarali amalga oshirish maqsadida Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2022-yil 8-aprelda “Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o‘sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to‘g‘risida”gi PF-101-sonli farmoni qabul qilindi. Unga ko‘ra, respublikada “xususiy mulk daxlsizligi va tadbirkorlik faoliyati erkinligini kafolatlash bo‘yicha institutsional va ma‘muriy islohotlarni takomillashtirish va bu sohada qonun ustuvorligini ta‘minlash” masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan.

Bundan tashqari, tadbirkorlarga qulayliklar yaratish va ularning oldida turgan muammolarni hal etish maqsadida joylarda bosh vazir qabulxonalari faoliyat yurita boshladi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi faoliyati shakllantirilib, unga 200 milliard so‘m va 50 million AQSh dollari miqdorida mablag‘ ajratildi. Shu bilan birga, tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshgani hisobiga, so‘nggi olti oy mobaynida tadbirkorlik subyektlari soni 60 mingtaga ortdi.

Shuningdek, mamlakatimizda tadbirkorlik to‘g‘risidagi sotsiologik dunyoqarashni shakllantirishda mentalitetimiz va rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi mutanosibligiga e‘tibor qaratilmoqda. Hozirgi kunda dunyo mamlakatlarining iqtisodiyotida oilaviy tadbirkorlik faoliyati alohida o‘rinni egallaydi. Yalpi milliy mahsulot hajmi negizida oilaviy tadbirkorlikdan ko‘rilayotgan daromad Yevropa mamlakatlarida 40-50 foiz, Osiyo davlatlarida 65 foizdan 82 foizgacha, Lotin Amerikasida 70 foizga yaqin. AQSh iqtisodiyotining 95 foizdan ziyodini oilaviy tadbirkorlik tashkil etadi. Shu sababdan ham mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab mamlakatimizda ham oilaviy tadbirkorlik faoliyatiga alohida e‘tibor berildi va yaratib berilgan imkoniyatlar natijasida hozirgi kunda respublikamizda oilaviy korxonalarining soni 13 mingdan ortiqni tashkil etmoqda.

Mamlakatimizda bu ko‘rsatkichga erishish jarayonida quyidagi omillarni alohida ko‘rsatib o‘tishimiz mumkin:

birinchidan, xalqimizning milliy mentalitetiga xos bo‘lgan xususiyatlarga e‘tibor qaratilmoqda;

ikkinchidan, jamiyatimizning ichki potentsiali (arzon ishchi kuchi, xalqimizning ajdodlardan qolgan milliy qadriyatlarni davom ettirib kelayotgani va boshqalar) dan kelib chiqqan holda oilaviy tadbirkorlik faoliyati tashkil etilmoqda.

Yuqoridagi omillardan ko‘rinib turibdiki, tadbirkorlik faoliyatini xalqimiz qadimdan ota-bobolarining faoliyatini sulola sifatida davom ettirib kelishgan bo‘lib, bu xalqimizning ongi va shuuriga singib ketgan qadriyatlarimizdandir. Shu sababdan ham mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillarida milliy qadriyatlarimizdan biri bo‘lgan oilaviy tadbirkorlik faoliyatiga alohida e‘tibor qaratildi. Bu esa xalqimizning ma‘naviy merosini asrlar osha bizgacha kelishini ta‘minlamoqda.

Jadidchilik eng avvalo, ularning aql-zakovati favqulodda yuksak rivojlangan, ham Sharq, ham G‘arb madaniyati haqida muayyan bilimga ega bo‘lgan. Ayni hol jadidlarning falsafiy dunyoqarashini belgilib bergan va bu ta‘lim sohasini, umuman olganda, ma‘rifatni isloh qilish borasidagi faoliyatida aks etgan. Jadidlar nafaqat bunday islohot o‘tkazishni nazariy jihatdan asoslab bergan, balki ma‘rifatni amalga oshirish uchun amalda ham tinmay harakat qilgan: ular yangi usuldagi maktab, kutubxona, qiroatxonalar ochgan, darsliklar, gazetalar chop etgan, ilk teatr tashkil etgan. Bu o‘sha davr kishilari uchun ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan yangilik bo‘lib, juda katta ta‘sir kuchiga ega bo‘lgan va odamlar ongida inqilob yasagan. Jadidchilikning o‘ziga xosligi nimada? Eng avvalo, ularning aql-zakovati favqulodda yuksak rivojlangan, ham Sharq, ham G‘arb madaniyati haqida muayyan bilimga ega bo‘lgan. Ayni hol jadidlarning falsafiy dunyoqarashini belgilib bergan va bu ta‘lim sohasini, umuman olganda, ma‘rifatni isloh qilish borasidagi faoliyatida aks etgan. Jadidlar nafaqat bunday islohot o‘tkazishni nazariy jihatdan asoslab bergan, balki ma‘rifatni amalga oshirish uchun amalda ham tinmay harakat qilgan: ular yangi usuldagi maktab, kutubxona, qiroatxonalar ochgan, darsliklar, gazetalar chop etgan, ilk teatr tashkil etgan. Bu o‘sha davr kishilari uchun ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan yangilik bo‘lib, juda katta ta‘sir kuchiga ega bo‘lgan va odamlar ongida inqilob yasagan.

Jadidchilikning asosiy g‘oya va maqsadlari Turkistonni o‘rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish, shariatni isloh qilish, xalqqa ma‘rifat tarqatish, Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurash, Buxoro va Xivada konstitutsiyaviy monarxiya va parlament, keyinchalik demokratik respublika tuzumini o‘rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish, barqaror milliy valyutani joriy qilish va milliy qo‘shin tuzish edi. Toshkent, Farg‘ona, Buxoro, Samarqand va Xivada hur fikrli va ayrim taraqqiyparvar kishilar tomonidan ochilgan madaniy-ma‘rifiy yo‘nalishdagi jamiyat va uyushmalardan Jadidchilik harakati shakllandi. uxorodagi harakat Turkistondagiga nisbatan og‘ir ijtimoiy-siyosiy sharoitda yuzaga keldi. Uning tarkibi asosan Buxoro shahar aholisining taraqqiyparvar qismi – ziyolilar, mayda do‘kondorlar va ma‘murlar, hunarmandlar, savdogarlardan iborat bo‘lib, jadidlarning dehqon va askarlar o‘rtasida nufuzi avvaliga past bo‘lgan. Jadidlar iqtisod va boshqaruv sohasida bir qator talablar, chunonchi, soliqlarni kamaytirish talabi bilan chiqishdi. Ular dastlab Buxorodagi amirlik tuzumi doirasida islohotlar joriy qilmoqchi bo‘lishdi. Buxoroda vobkentlik dehqon Jo‘raboy ilk yangi usul maktabini ochgan. Lekin Jadidchilik harakatiga ayrim johil mullalar, har qanday yangilik va islohotning dushmani bo‘lgan qadimchilar oqimi qarshi chiqdi. XX asr boshlarida Buxoro jamiyati Ikrom domla rahbarligidagi taraqqiyparvarlar va Mulla Abdurazzoq boshchiligidagi qadimchilarga bo‘lingan edi. 1908 yil “Buxoroi sharif shirkati” tuzilib, darsliklar nashr etish va kitob savdosi bilan shug‘ullandi. Ahmadjon Hamdiy (Abusaidov), Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jaev (Usmon Xo‘ja), Homidxo‘ja Mehriy, Abdulvohid Burhonov, Abdulqodir Muhiddinov, Sadridin Ayniy, Abdurahmon Sa‘diy shirkatning tashkilotchilari edi.

1909-yilning dekabr oyida jadidlar Buxoroda “Tarbiyai atfol” (“Bolalar tarbiyasi”) maxfiy jamiyatini tuzishdi (asoschilari Abdulvohid Burhonov, Homidxo‘ja Mehriy, Ahmadjon Hamdiy, Mukammil Burhonov, Hoji Rafe). Bu jamiyat turkistonlik va buxorolik yoshlarni Istanbuldagi “Buxoro ta‘limi maorif jamiyati” bo‘limiga o‘qishga jo‘natdi. Xorijdagi ta‘lim yoshlar dunyoqarashida tubdan burilish yasadi. Jadidchilik Buxoro va Turkistonda bir vaqtda boshlangan bo‘lsa ham, amirlikdagi og‘ir muhit uning taraqqiyyotini tezlashtirdi. 1910 yildan boshlab Buxoroda Jadidchilik harakati tashkiliy tus oldi va “Tarbiyai atfol” maxfiy jamiyati asosida partiya tashkil topdi.

XIX asr oxiri XX boshlarida yashab ijod qilgan jadid allomalar Ahmad Donish va Abdurauf Fitrat o‘z ijodlari bilan o‘zbek va tojik madaniyatida munosib hissa qo‘shganlar. “Najot yo‘li” (“Rahbari najot”) va “Navodir ul vaqoe” asarlarida ularning jadidlik g‘oyalari, zamonaviy fanlar doirasida bilimga ega ekanligi, insonlarning ilmga rag‘bati, ilm sabab Buxoro ahlining hayot tarzini yangilash, diniy ta‘limni qayta shakllantirish

hamda ma'rifat tushunchasida o'z xalqining ijtimoiy hayotidagi asrlik turg'unlikdan xalos bo'lishga undash g'oyalari yetakchilik qilgan.

Jahonda kechayotgan globallashuv jarayonlari Sharq xalqlarining falsafiy tafakkur tarixi, unga xos xususiyatlar, buyuk allomalarning ma'naviy merosidagi milliy va umuminsoniy g'oyalarni axloqiy qadriyat sifatida insoniyat ayniqsa, yoshlar ongiga singdirishni talab etmoqda.

Buxoro ma'rifatparvachiligining yuqori cho'qqisi bo'lgan jadid mutafakkirlarining bag'rikenglikka oid boy g'oyalari yoshlarni ertangi kun vorislari qilib tarbiyalash muhim ahamiyatga ega.

XULOSA: Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, kichik biznesning mamlakatimiz iqtisodiyotiga qo'shayotgan hissasini oshirish, kichik sanoat zonalarini barpo etish, investitsiya va raqobat muhitini yaxshilash, kichik biznes bilan davlat-xususiy sheriklik doirasidagi davlat xaridlarini kengaytirish, kooperatsiya qilish zarur. Buning uchun kichik korxonalar va xususiy tadbirkorlar o'rtasida o'zaro manfaatli hamkorlik va tadbirkorlik subyektlarini innovatsion jarayonlarga jalb etish mustahkamlanmoqda. Yetarli eksport salohiyatiga ega, biroq ayni paytda yanada rivojlantirish uchun yetarli mablag'ga ega bo'lmagan muvaffaqiyatli va istiqbolli kichik biznes subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash muhimligini ham alohida ta'kidlash joiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5841063>
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 8 апрелдаги ПФ-101-сон «Тадбиркорлик муҳитини яхшилаш ва хусусий секторни ривожлантириш орқали барқарор иқтисодий ўсиш учун шарт-шароитлар яратиш борасидаги навбатдаги ислохотлар тўғрисида»ги фармони. <https://lex.uz/docs/-5947775?ONDATE=09.04.2022%2000>
3. Мирзиёев Ш. Кичик бизнес ва тadbirkorlikни ривожлантириш бўйича янги тизим жорий этилади. Ҳалқ сўзи газетаси. 2019 йил 24 июль. №150.
4. Бухоро Давлат меъморий-бадий музей-қўриқхонаси қўлёзма фонди, 1573-инвентар.
5. Садриддин Айнийнинг 1917 йилда Самарқандда нашр этилган Таҳзиб ус-сибиён асарининг асл нусхаси Бухоро шаҳридаги Арк музейида сақланмоқда. Маълумотлар шу ердан олинди
6. Ражабов Қ. Ёш бухороликлар // Бухоро мавжлари. 2005. – №2. – Б.27.